

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xaydarova Mashxura, Valiyev Gulam

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI
TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH 4-8

TARIX FANLARI

Kulboev Nishonboy

RESEARCH CONDUCTED IN UVOLSOY 9-12

Sodiqov Erali

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID
MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH 13-16

IQTISODIYOT FANLARI

Shukurov Ikrom

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING
AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH 17-21

FALSAFA FANLARI

Yoqubova Nafisa

MILLATLARARO MADANIYAT INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI 22-25

FILOLOGIYA FANLARI

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В АМЕРИКЕ 26-31

Xoldorova Xulkaroy

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI 32-34

YURIDIK FANLARI

Sharipov Firdavs

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-
HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 35-39

Salomov Xumoyun

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING QONUNIYLIKNI
TA'MINLASHDAGI STRATEGIK VAZIFALARI 40-43

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH 44-46

IQTISODIYOT FANLARI

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH

Shukurov Ikrom Abdurashitovich

Qarshi davlat texnika universiteti, Biznes va boshqaruv kafedrası mustaqil izlanuvchis

Email: ikromshukurov93@gmail.com

Tel: +99890-224-51-75

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2852-3991>

Qarshi shahri, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi va uning aholi farovonligiga ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida hududiy rivojlanishda muhim o'rin tutib, mahalliy aholining daromadlari, bandlik darajasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati, investitsiya jarayonlari va xalqaro hamkorlik omillari o'rganilib, ularning aholi turmush darajasini yaxshilashdagi o'рни aniqlangan. Shu bilan birga, Samarqand viloyatida turizmning tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi iqtisodiy imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlil usullari qo'llanilib, turizmning barqaror rivojlanishi bilan aholi farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda yoritilgan. Olingan natijalar hududiy turizm siyosatini takomillashtirish va farovonlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: turizm, barqaror rivojlanish, iqtisodiy tahlil, aholi farovonligi, Samarqand viloyati, infratuzilma, bandlik, investitsiya, tarixiy-madaniy meros, kichik biznes.

ANALYSIS OF THE IMPACT OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN SAMARKAND REGION ON POPULATION WELFARE

Shukurov Ikrom Abdurashitovich

Independent Researcher at the Department of Business and Management, Karshi State Technical University

Annotation. This scientific article provides a comprehensive analysis of the sustainable economic development of the tourism sector in the Samarkand region and its impact on population welfare. Tourism, as one of the leading sectors of the economy, plays a crucial role in regional development, significantly influencing household income, employment levels, and socio-economic stability. The study examines tourism infrastructure, service quality, investment processes, and factors of international cooperation, identifying their contribution to improving the living standards of the local population. Furthermore, the economic potential of tourism in preserving historical and cultural heritage, supporting small business, and promoting private entrepreneurship in the region is analyzed. Based on statistical data, economic-analytical methods were applied to scientifically substantiate the interrelation between sustainable tourism development and population welfare. The results of the research can be utilized to improve regional tourism policies and to develop practical recommendations aimed at enhancing the well-being of the population.

Key words: tourism, sustainable development, economic analysis, population welfare, Samarkand region, infrastructure, employment, investment, historical and cultural heritage, small business.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i8/n04>

Kirish

So'nggi yillarda turizm sohasi jahon miqyosida iqtisodiyotning eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, barqaror turizm konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash va ekologik muhitni muhofaza etishda muhim omil sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Samarqand viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, nodir me'moriy yodgorliklari va betakror turizm salohiyati bilan nafaqat mintaqada, balki xalqaro miqyosda ham yirik turistik markaz sifatida shakllangan. Ushbu salohiyatning samarali va barqaror rivojlanishi aholining daromad manbalarini kengaytirish, bandlikni ta'minlash, infratuzilma rivojini jadallashtirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Shu bois, Samarqand viloyatida turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi va uning aholi farovonligiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil etish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni va aholi farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, mavjud imkoniyat va muammolarni baholash hamda samarali rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi va uning aholi farovonligiga ta'sirini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini aniqlash uchun tizimli tahlil usuli qo'llanilib, mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajribalar o'rganildi[2].

Tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlil usullari ishlatildi. Xususan, Samarqand viloyatida turizm sohasining dinamik rivojlanish ko'rsatkichlari – xizmatlar hajmi va o'rtacha oylik ish haqi(daromadi) bilan qiyosiy o'rganildi.

1-jadval

Samarqand viloyati turizm sohasida turisti xizmatlar hajmi va o'rtacha oylik ish haqi(daromadi) ko'rsatkichlari[3]

T/r	Yillar	Turistik xizmat hajmi (mln.dollar)	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'mda)
1	2010	1,2	429,1
2	2011	1,3	466,4
3	2012	1,5	532,0
4	2013	2,1	620,9
5	2014	17,6	733,2
6	2015	18,8	843,4
7	2016	28,1	902,8
8	2017	37,2	1 011,2
9	2018	87,2	1 336,6

10	2019	136,1	1 699,5
11	2020	8,4	2 001,4
12	2021	79,6	2 410,9
13	2022	197,6	3 321,7
14	2023	405,9	3 451,2
15	2024	523,7	4 087,6


Bundan tashqari, turizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda deskriptiv tahlil, korrelyatsion va regressiya modellaridan foydalanildi. Shu orqali turizmning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi aniqlanib, hududiy farovonlikni oshirishdagi turizmning real imkoniyatlari baholandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar, bir tomondan, turizm sohasining mavjud holatini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini bersa, boshqa tomondan, kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatida turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Analiz jarayonida aniqlanishicha, so'nggi yillarda viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy va ichki turistlar sonining ortishi xizmatlar hajmini kengaytirib, mahalliy byudjetga qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar hajmining o'sishi bandlik darajasi va aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Ekonometrik tahlillar natijasida turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan aholi farovonligini belgilovchi indikatorlar o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi. Xususan, turizm xizmatlari hajmidagi 1 foizlik o'sish aholining daromad darajasini o'rtacha 0,6–0,8 foizga oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, natijalar turizm sohasida barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat sifati, ekologik muhofaza, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy infratuzilmaning mos ravishda rivojlanishi zarurligini ham ko'rsatmoqda.



1-rasm. Samarqand viloyati turizm sohasida turistik xizmatlar hajmi va o'rtacha oylik ish haqi o'sishi dinamikasi

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, turizm sohasi aholi farovonligini oshirishda ijobiy ta'sirga ega bo'lishi bilan birga, uning samaradorligi bevosita boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi, investitsion muhitning barqarorligi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga bog'liq. Shu bois, turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion boshqaruv yondashuvlari, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va hududiy integratsiyani kuchaytirish muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashda, balki aholining farovonligini oshirishda ham muhim omil ekanini tasdiqladi. Turizmning rivojlanishi mahalliy daromadlarni ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda. Shuningdek, iqtisodiy-statistik va ekonometrik tahlillar turizm ko'rsatkichlari bilan aholi farovonligi o'rtasida ijobiy va bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Biroq, mavjud muammolar – turizm xizmatlari sifatining yetarli darajada yuqori emasligi, ekologik muhofaza masalalari, xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaslik va investitsiya oqimining barqaror emasligi – sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Turizm infratuzilmasini zamonaviy talablarga mos holda modernizatsiya qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish.

Mahalliy aholini turizm sohasida kasbiy tayyorlash va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun "yashil turizm" konsepsiyasini joriy etish.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish.

Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizm boshqaruvini samarali tashkil etish.

Ushbu xulosalar va tavsiyalar hududiy turizm siyosatini takomillashtirish, Samarqand viloyati aholisining turmush darajasini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli farmoni.
2. E.B.Bozarov, M.Tursunov. Turizmning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Central Asian academic journal of scientific research. Volume 1. Issue 1. 2021. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmning-iqtisodiyotda-tutgan-o-rni/viewer>
3. samstat.uz
4. Wu, C., & Song, L. (Eds.). (2022). Econometric Modelling and Forecasting of Tourism Demand: Methods and Applications. Routledge.
5. Giaoutzi, M., & Nijkamp, P. (Eds.). (2006). Tourism and Regional Development: New Pathways.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.